

**BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY
SAMARADORLIGI****Xolikulov O'ktam Abdumuminovich***Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**Bank ishi kafedrası asistenti***Abdullayeva E'zoza***Samarqand iqtisodiyot va servis inistituti**Bank ishi yo'nalishi 424-guruh talabasi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonining nazariy asoslari hamda uning iqtisodiy samaradorligi masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida raqamli bank xizmatlarining turlari, ularning bank faoliyatiga ta'siri hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, O'zbekiston bank tizimida raqamlashtirish jarayonining hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bank xizmatlarini rivojlantirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: bank tizimi, elektron banking, raqamli bank xizmatlari, raqamlashtirish, iqtisodiy samaradorlik, blockcheyn, moliyaviy texnologiyalar, bank innovatsiyalari, O'zbekiston banklari.

Annotation: This article analyzes the theoretical foundations of the digitalization of banking services and its economic efficiency. The study examines the types of digital banking services, their impact on banking activities, and their role in improving economic performance. In addition, the current state of digital banking services in Uzbekistan, existing problems, and ways to overcome them are discussed. The results of the research contribute to the development of practical recommendations aimed at reducing costs, improving service quality, and increasing customer satisfaction in the banking sector.

Keywords: banking system, electronic banking, digital banking services, digitalization, economic efficiency, financial technologies, banking innovations, banks of Uzbekistan.

Kirish: Raqamli bank xizmatlari tushunchasi va turlari bank sektori uchun iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida keng qamrovli o'rganilmoqda. Raqamli bank xizmatlari – bu banklar tomonidan texnologik yangiliklar va raqamli platformalar yordamida taqdim etiladigan moliyaviy xizmatlarning keng doirasi bo'lib, ular mijozlarga qulayliklar va xavfsizlikni oshiradi. Bu xizmatlar orasida elektron banking, mobil banking, plastik kartochkalar, raqamli

to'lov tizimlari, shuningdek, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish ham mavjud.

Elektron banking – bu bank mijozlariga kompyuter yoki mobil qurilma orqali onlayn ravishda hisoblarni boshqarish, to'lovlar qilish va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradigan xizmatdir. Bu xizmat nafaqat operatsion xarajatlarni kamaytiradi, balki xizmat ko'rsatish jarayonini tezlashtiradi va mijozlar uchun xizmat sifatini oshiradi. Mobil banking esa, ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq bo'lib, mobil ilovalar yordamida foydalanuvchilar o'z hisoblarini boshqarish, to'lovlar qilish, va moliyaviy ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu xizmatlar orqali banklar kengroq mijozlar bazasiga kirib, moliyaviy inkluzivlikni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Plastik kartalar, ayniqsa, debet va kredit kartochkalar, raqamli to'lov tizimlari bilan birga, kundalik moliyaviy operatsiyalar uchun eng qulay vositaga aylangan. Raqamli to'lov tizimlari esa, masalan, hamkorlikda ishlatiladigan mobil to'lov ilovalari va onlayn platformalar bilan, mijozlarga to'lovlarni tez va xavfsiz amalga oshirish imkonini yaratadi. Bu xizmatlar shuningdek, iqtisodiy faoliyatni soddalashtirishga va mamlakat ichidagi hamda tashqarisidagi moliyaviy oqimlarni optimallashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar banklarning risklarni boshqarish va ma'lumotlarni xavfsizligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili yordamida banklar mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlarini kuzatib boradi, shuningdek, firibgarlik va kiberxavfsizlik muammolariga qarshi kurashishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash imkonini beradi. Blokcheyn texnologiyasi esa, ayniqsa, tranzaksiyalarni shaffof va xavfsiz qilishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Raqamli texnologiyalar banklarning risklarni boshqarish va ma'lumotlarni xavfsizligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston banklari raqamli texnologiyalarni joriy qilishda, asosan, onlayn banking, mobil banking va raqamli to'lov tizimlariga katta e'tibor qaratmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat mijozlar uchun xizmat ko'rsatishni qulaylashtiradi, balki banklarning operatsion xarajatlarni kamaytirishga ham xizmat qilmoqda. Bu borada M.S. Abdurashidova (2023) o'z tadqiqotida O'zbekiston bank sektorida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini joriy etishning ustuvor yo'nalishlari va amaliy imkoniyatlarini har tomonlama tahlil qilgan. Muallifning ta'kidlashicha, bank faoliyatiga AI tizimlarining integratsiyalashuvi moliyaviy xizmatlar sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Xususan, sun'iy intellekt asosida mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali individual yondashuvni kuchaytirish, kredit scoring jarayonlarini aniqroq va shaffofroq amalga oshirish, shuningdek, inson omili bilan bog'liq texnik xatoliklarni minimallashtirish imkoniyati yaratiladi. Tadqiqotda AI asosida ishlovchi virtual yordamchilar va chat-botlar orqali 24/7 rejimida xizmat

ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish bank xizmatlaridan foydalanish qulayligini oshiruvchi eng dolzarb innovatsion yechimlardan biri sifatida baholanadi. Bu esa mijozlarning murojaatlarini tezkor ko'rib chiqish, ularning qoniqish darajasini oshirish va banklar bilan uzoq muddatli ishonchli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Z.Mamadiyarov (2024) o'z ilmiy ishida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish jarayonini zamonaviy raqamli transformatsiya nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilgan. Tadqiqotda mobil ilovalar, internet-banking va onlayn to'lov tizimlarining mijozlar hayot tarziga ko'rsatgan ijobiy ta'siri alohida e'tirof etiladi. Muallifning fikricha, masofaviy bank xizmatlari orqali operatsion xarajatlar va vaqt sarfini qisqartirish, xizmatlar narxining nisbatan arzonligini ta'minlash hamda axborot xavfsizligini mustahkamlash mumkin. Shu bilan birga, Mamadiyarov bank xizmatlarining raqamli shaklga o'tishini bank va mijoz o'rtasida uzluksiz, interaktiv va samarali aloqalarni yo'lga qo'yuvchi muhim omil sifatida baholaydi. Natijada, masofaviy xizmatlar bank tizimining raqobatbardoshligini oshirib, moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqotlar bank sektorida sun'iy intellekt va masofaviy xizmatlarning joriy etilishi moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini chuqurroq qondirish hamda bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqotda O'zbekiston bank sektorida sun'iy intellekt texnologiyalari va masofaviy bank xizmatlarining joriy etilishi hamda ularning bank faoliyati samaradorligiga ta'siri kompleks tarzda o'rganildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy tahlil usullaridan uyg'un holda foydalanildi.

Avvalo, ilmiy tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish maqsadida mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalari, ilmiy maqolalari hamda sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ushbu jarayonda tizimli tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanilib, bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasi bo'yicha mavjud yondashuvlar o'rganildi.

Tadqiqotning amaliy qismida O'zbekiston bank sektorida masofaviy bank xizmatlari va sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilish holatini baholash uchun taqqoslama tahlil, statistik tahlil va dinamik tahlil usullari qo'llanildi. Banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari, mijozlar soni, masofaviy xizmatlardan foydalanish darajasi hamda operatsion samaradorlik indikatorlari asosida tahlillar amalga oshirildi.

Iqtisodiy samaradorlikni baholashda muhim o'lchovlar sifatida xarajatlar va foyda ko'rsatkichlari, mijozlar sonining oshishi, moliyaviy inkluzivlik darajasi va xizmatlar qulayligi o'rganildi. Raqamli bank xizmatlarining muvaffaqiyatini aniqlash uchun, shuningdek, mijozlarning qoniqishi va ularning bank xizmatlariga bo'lgan sadoqati ham muhim omil sifatida e'tiborga olingan holda tahlil qilindi. E'tibor

berishimiz joizki pandemiya davrida raqamli texnologiyalarning ahamiyati yanada ortib, banklarning raqamli transformatsiyasining muhimligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarining kengayishi bilan xavfsizlik muammolari, ma'lumotlarning maxfiyligi va texnologik muvofiqlik masalalari ham alohida e'tiborga molikdir.

Tahlil va natijalar: Raqamli bank xizmatlarining hozirgi holatini tahlil qilishda, avvalo, ularning mamlakat bank sektoridagi joriy darajasini, foydalanilayotgan texnologiyalar va ularning kengayish imkoniyatlarini o'rganish muhimdir. O'zbekiston banklari raqamli texnologiyalarni joriy qilishda, asosan, onlayn banking, mobil banking va raqamli to'lov tizimlariga katta e'tibor qaratmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat mijozlar uchun xizmat ko'rsatishni qulaylashtiradi, balki banklarning operatsion xarajatlarini kamaytirishga ham xizmat qilmoqda. Bundan tashqari xarajatlarni kamaytirish – raqamli texnologiyalar yordamida banklar operatsion xarajatlarni muhim darajada qisqartirish imkoniga ega bo'ladi. An'anaviy bank xizmatlarida mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun ko'plab shaxsiy xodimlar va qimmatli infratuzilma talab etiladi. Raqamli platformalar, masalan, onlayn banking, mobil ilovalar va raqamli to'lov tizimlari, bu xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishga imkon yaratadi. Mijozlar uchun qulayliklar kengayishi bilan birga, banklar uchun xarajatlarni qisqartirish ularning rentabelligini oshiradi va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan siyosiy va iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi. Davlat va xususiy sektor hamkorligida yangi texnologik yechimlar joriy etilmoqda, bu esa banklarning raqamli transformatsiyasini tezlashtirmoqda. Bunday jarayonlar natijasida, banklar mijozlarga xizmat ko'rsatishda yanada qulay va xavfsiz bo'lishi, shuningdek, moliyaviy xizmatlarning kengayishi ta'minlanmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida, ayniqsa, banklar uchun xizmatlarni masofadan boshqarish imkoniyatlari kengayib, moliyaviy inkluzivlik darajasi oshmoqda.

O'zbekiston bank xizmatlarining raqamli shakllarga o'tishi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy xizmatlarning kengayishi va xizmat sifatini yaxshilash uchun muhim omil hisoblanadi. Biroq, bu jarayon muvaffaqiyatli bo'lishi uchun, texnologik rivojlanish, xavfsizlik muammolarini hal qilish, yuridik bazani takomillashtirish va inson resurslarini rivojlantirish kabi muhim omillarni hisobga olish zarur. Raqamli texnologiyalar yordamida banklar, nafaqat, xizmatlarni qulayroq qilish, balki, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, hozirgi holatda mamlakatdagi banklarning raqamli texnologiyalarni qabul qilish darajasi turli xil bo'lib, ularning qobiliyatlari va texnologik infratuzilmasining rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Ba'zi banklar ilg'or

raqamli platformalar va innovatsion yechimlarni joriy qilishda oldingi o‘rinlarda borayotgan bo‘lsa, boshqalar texnologik muhitga moslashishda muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolarga texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, kadrlar malakasining pastligi va xavfsizlik muammolari kiradi.

Xulosa: Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston sharoitida bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonining iqtisodiy samaradorligi keng qamrovli tahlil qilindi. Raqamli bank xizmatlarining tushunchasi, ularning turlari va bank tizimida bosqichma-bosqich shakllanishi haqida so‘z yuritildi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning bank faoliyatiga ta‘siri, jumladan, xarajatlarni kamaytirish va daromadlar hamda mijozlar faolligiga bo‘lgan ijobiy ta‘siri o‘rganildi. O‘zbekiston misolida, raqamli bank xizmatlarining mavjud holati, muammolari va cheklovlari tahlil qilindi, bu esa sohadagi rivojlanish istiqbollari uchun muhim asos bo‘ldi.

Yakuniy natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli bank xizmatlarini joriy etish orqali banklar operatsion xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirishga erishmoqda, xizmatlar tezligi va sifatini oshiryapti hamda moliyaviy inkluzivlikni kengaytirmoqda. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida mijozlar bilan ishlash jarayonining qulayligi va xavfsizligi ta‘minlanmoqda, bu esa banklarning raqobatbardoshligini oshiradi. Pandemiya davrida bu jarayonning ahamiyati yanada ortib, raqamli transformatsiya bank sektorining asosiy rivojlanish yo‘nalishiga aylanganligini ko‘rsatdi. Biroq, raqamli bank xizmatlarining kengayishi bilan bog‘liq xavfsizlik muammolari, ma‘lumotlarning maxfiyligi va texnologik muvofiqlik masalalari ham muhim muhokama qilinmoqda. Bu muammolarni hal qilish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va inson resurslarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi zarur. Natijada, banklarning raqamli transformatsiyasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki moliyaviy xavfsizlik va xizmat sifatini ham ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni milliy iqtisodiyot uchun muhim omil bo‘lib, uning muvaffaqiyati texnologik rivojlanish, siyosiy qo‘llab-quvvatlash hamda inson resurslarini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Kelajakda bu jarayonni yanada kengaytirish va sifat jihatidan yaxshilash uchun yangi innovatsiyalarni joriy qilish, xavfsizlikni mustahkamlash va moliyaviy inkluzivlikni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi nafaqat bank sektorining, balki umumiy iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo‘lib qoladi. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar, aholi va biznes uchun yanada qulay, xavfsiz va samarali moliyaviy muhit yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismoilov, S. (2020). O‘zbekiston bank sektorining raqamli transformatsiyasi va uning iqtisodiy samaradorligi. Tahlil va prognoz, 4(58), 45-52.
2. Yusupov, A. (2019). Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi va moliyaviy inkluzivlikni oshirishdagi roli. Bank va Biznes, 3(25), 78-85.
3. Sultonov, M. (2021). O‘zbekiston bank tizimida raqamli texnologiyalar va xavfsizlik muammolari. Informatika va iqtisodiyot, 2(12), 33-41.
4. Tog‘ayev, N. (2018). Raqamli bank xizmatlarini joriy etishning iqtisodiy asoslari. O‘zbekiston Milliy Universiteti Ilmiy xabarnomasi, 6(64), 112-119.
5. Qodirov, B. (2022). Pandemiya davrida raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi va iqtisodiy samaradorlik. Xalqaro iqtisodiy munozaralar, 5(37), 59-66.
6. Ikromov, S. & Alimova, M. (2025). O‘zbekiston bank tizimini raqamlashtirish va fintechimkoniyatlari. Bank ishi va moliya jurnali.
7. Abdurashidova, M. S. (2023). Sun‘iy intellekt texnologiyalarini O‘zbekiston banksektorida qo‘llash istiqbollari. O‘zbekiston moliya bozori
8. Mamadiyarov, Z. (2024). Masofaviy bank xizmatlari rivoji va ularning mijozlar hayotidagio‘rni. Tijorat banklari amaliyoti.
9. Ayadi, R. (2025). Digitalisation and bank efficiency: Non-linear impacts in the EU context. Journal of Banking Regulation.